

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY VA MADANIY URF
ODATLARIGAGA OID BO'LGAN SO'ZLARNI DARS JARAYONIDA
ISHLATILISH USULLARI**

*Namangan shahar To'raqo'rg'on tumani
8-o'rta ta'lim maktabining Ingliz tili o'qituvchisi
To'xtamurodova Azima Abdulla qizi*

***Annotatsiya:** Maqolada ingliz va o'zbek to'y marosimi atamallari haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ularning semantik xususiyatlari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** marosim, semantik xususiyatlar, to'y marosimi, to'yga tayyorgarlik, to'y ziyofati, atamalar.*

Nikoh to'yi marosimi turli xalqlarda turlicha nishonlanishi bilan bir qatorda, o'ziga xos atamallari va lingvokulturologik jihatlari bilan ajralib turadi. D.D.Manukyan, Y.A.Sorokin, d.A.Gilfanova kabi olimlar nikoh to'y marosimiga oid izlanishlar olib borib, ularning madaniy va lingvokulturologik jihatlari tahlil qilishgan. O'zbek xalqining nikoh to'yi tizimida bir qancha marosimlar mavjud: sovchilik, unashtirish, uy ko'rar (qiz ko'rar), fотиha to'yi, to'y yuborish, qiz oshi (qizlar majlisi), nikoh o'qitish, kelin tushdi, kelin salom, charlar, quda chaqiriq kabi marosimlar va ular bilan bog'liq urf-odatlar. Ularning aksariyati hozirgacha saqlanib, nishonlanib kelinadi. O'zbek xalqida nikoh to'yi marosimiga xos ayrim atamalar quyidagilar:

ko'rmana— kelinni (yoki chaqaloqni) ilk bor ko'rishda qarindoshlar, yaqin kishilar tomonidan beriladigan sovg'a;

fотиha—qiz bilan yigitni to'ydin oldin unashtirish marosimi.

Yigit bilan qizning to'yga rozi bo'lganidan so'ng fотиha to'yi o'tkazilib, unga qarindoshlar va yaqin kishilar taklif etiladi;

kelin salom—kelinning to`ydan keyingi kun kuyovning qarindoshlariga salom berish marosimi;

kuyovnavkar, kuyovjo`ra— to`y marosimida kuyovning yonida turuvchi do`stlar, jo`ralar.

Nikoh to`yida kuyov bilan birga kelinnikiga boruvchi yigitlar, kuyovning do`stlari, tengqurlari.

chimildiq— nikoh to`yi kuni qizning uyidagi kuyov kiradigan xonaga va kuyovning uyidagi kelin tushadigan xonaning bir burchagiga yoki uyning to`riga tutiladigan maxsus oq parda yoki gulli choyshab. Chimildiq tutish davomiyligi O`zbekistonning turli hududlarida turlicha. Ba`zi viloyatlarda ikki, uch kunda so`ng olinsa, ba`zi hududlarda chilla chiqgach (40 kundan so`ng) olib qo`yiladi. chopon—ichiga paxta qavib tikiladigan uzun milliy kiyim. Nahor oshi marosomida kuyovga yoshi ulug` qarindosh tomonidan kiydiriladi; Ingliz tilida so`zlashuvchi davlatlarda ikki bosqichdagi to`y marosimlarini o`tkazish odat tusiga kirgan:

A. civil ceremonies—nikohni qayd etuvchi tashkilotda o`tkaziladigan marosim

B. white weddings—odatda cherkovda o`tkaziladigan marosim.

Oq to`y deb atalishinining sababi esa kelinning oppoq kiyimda bo`lishidir. Zamonaviy ingliz to`ylari ochiq havoda, park yoki bog`larda ham o`tkaziladi.

Ingliz tilidagi ayrim to`y marosim atamaları quyidagilar:

aisle—cherkov o`rtasida joylashgan yo`lak, o`tish joyi. Kelinning otasi yoki boshqa yaqin qarindoshi shu yo`lakdan yurib, kuyov va rohib yoniga kirib borishadi;

confetti—marosimdan keyin mehmonlar tomonidan kelin-kuyov ortidan omad uchun otiladigan qog`oz parchalari. Ba`zan qog`oz o`rnida guruch ham otishadi;

wedding band—kelin kuyov bir biriga nikoh marosimida taqadigan uzuklar;

vow—qasam. Kelin va kuyov bir-biriga izhorlarini aytishadi va yaxshi-yomon kunda birga bo`lishga qasam ichishadi;

band—to`yga chaqiriladigan musiqiy guruh;

buffet—mehmonlar o`zlari ovqatlanadigan bufet;

hors d`oeuvres—ovqatdan oldin yeyiladigan gazak;

bridal shower—kelin, uning oilasi va do`stlari uchun o`tkaziladigan bazm. An`anaga ko`ra, bu kunda sovg`alar ulashiladi.

fiancé— to`ygacha kuyovni shunday atashadi;

fiancée— to`ygacha kelinni shunday atashadi.

Ingliz va o`zbek to`y marosim atamaları o`ziga xos bo`lib, ular orasida o`xshashlikdan ko`ra farqlar ustunlik qiladi. Bu ikkala xalqning madaniyati, urf-odatları, turmush tarzi va an`analari bilan chambarchas bo`g`liqdir. Har bir atamaning etimologiyasi, ya`ni kelib chiqish tarixi bo`lib, ularning ba`zilari diniy xarakterga ega bo`lib, uzoq o`tmishga borib taqaladi,

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sternin, I.A. Communicative behavior in the structure of national culture Text. / I. A. Sternin // Ethnocultural specificity of linguistic consciousness: collection of articles. scientific. articles. Moscow: IYa RAN, 1996. - pp. 97-112.

2. Sumtsov, N.F. About wedding ceremonies, mostly Uzbek. Electronic resource. /N.F.Sumtsov//<http://www.gatchina3000.ru/brockhaus-and-efronencyclopedia/091/91369.htm>. Title from the screen

3. Hakimov, S., & Dadaxanov, F. (2022). STATE OF HEAT CONDUCTIVITY OF WALLS OF RESIDENTIAL BUILDINGS. *Science and innovation*, 1(C7), 223-226.

4. Yuldashev, S., & Hakimov, S. (2022). ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН ТЕБРАНИШЛАР ҲАҚИДА. *Science and innovation*, 1(A5), 376-379

5. Yuvmitov, A., & Hakimov, S. R. (2021). Influence of seismic isolation on the stress-strain state of buildings. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 11(1), 71-79.

6. Шаропов, Б. Х., Хакимов, С. Р., & Рахимова, С. (2021). Оптимизация режимов гелиотеплохимической обработки золоцементных композиций. *Матрица научного познания*, (12-1), 115-123.
7. Ювмитов, А. С., & Хакимов, С. Р. (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СЕЙСМОИЗОЛЯЦИИ НА ДИНАМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЗДАНИЯ. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 10(2), 14.
8. Хакимов, С. (2022). АКТИВ ВА ПАССИВ СЕЙСМИК УСУЛЛАРИ ҲАМДА УЛАРНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 30-36.
9. Хакимов, С., Шаропов, Б., & Абдуназаров, А. (2022). БИНО ВА ИНШОТЛАРНИНГ СЕЙСМИК МУСТАҲКАМЛИГИ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР (РОССИЯ, ЯПОНИЯ, ХИТОЙ, АҚШ) МЕЪЁРИЙ ХУЖЖАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 806-809.
10. Hakimov, S. (2022). Propagation of Vibrations Created by the Movement of Trains on Parallel Railway Tracks, in the Ground and in Buildings. *Scienceweb academic papers collection*.
11. Khamidov, A. I., & Khakimov, S. (2023). Study of the Properties of Concrete Based on Non-Fired Alkaline Binders. *European Journal of Geography, Regional Planning and Development*, 1(1), 33-39.
12. Khamidov, A., & Khakimov, S. (2023). MOISTURE LOSS FROM FRESHLY LAID CONCRETE DEPENDING ON THE TEMPERATURE AND HUMIDITY OF THE ENVIRONMENT. *Science and innovation*, 2(A4), 274-279.
13. Khakimov, S. R., & Sharopov, B. K. (2023). Educational Quality Improvement Events Based on Exhibition Materials in Practical Training Lessons. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 1(2), 5-10.